

XORIJIY VALYUTANI SOTIB OLİSH VA QAYTA SOTISH BO'YICHA SHARTNOMA (OMMAVIY OFERTA)

Xorijiy valyutani sotib olish va qayta sotish bo'yicha shartnoma (bundan keyin – Shartnoma) "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni, "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi qonun, "Elektron to'lovlar to'g'risida"gi qonuni, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonuni, "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonuni, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonuni, "O'zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish" qoidalari va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, bank va mijoz o'rtaida xorijiy valyutani oldi-sotdisini "Internet Banking" masofadan xizmat ko'rsatish tizimi (bundan keyin – Tizim) orqali amalga oshirishni belgilaydi.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu oferta Aksiyadorlik tijorat bank "Biznesni rivojlantirish banki" (bundan keyin – Bank) hamda Tizim ishtiroychisi (bundan keyin – Mijoz) o'rtaida elektron tarzda tuzildi. Shartnoma Tizimdagi "Zayavka na pokupku-prodaju inostrannoy valyuti" moduli orqali masofadan turib xorijiy valyutani sotib olish yoki qayta sotish uchun amal qiladi. Mazkur oferta shartnomani tasdiqlash orqali Mijoz amalga oshirilgan xizmatlar uchun akseptsiz tartibda o'zining O'zbekiston Respublikasida ochilgan barcha hisobvaraqlaridan bankka to'lanadigan haqni undirishga rozilik beradi.

1.2. Tizimda ishslash uchun Mijoz internet tarmog'iga ulanish imkonini beruvchi qurilma (uskuna), internet aloqasiga ega bo'lishi lozim. Mijoz tomonidan Tizim orqali yuborilgan buyurtmalarning va to'lov hujjatlarining asl nusxalari Bank tomonidan talab etilmaydi. Tizim Bank mulki hisoblanadi.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Bank mazkur shartnomada belgilangan shartlar va tartibda haq evaziga Mijozga uning buyurtmasida ko'rsatilgan miqdordagi xorijiy valyutani sotish yoki qayta sotib olishni, Mijoz esa buyurtmada belgilangan miqdorda xorijiy valyutani sotib olish yoki qayta sotish majburiyatini oladi. Xorijiy valyutani sotib olish va qayta sotish Bank tomonidan o'rnatilgan kurs bo'yicha amalga oshiriladi.

2.2. Ushbu Tizim orqali Mijoz xorijiy valyuta sotib olish yoki qayta sotish uchun masofadan turib buyurtma taqdim qilish va hisob kitoblarni amalga oshirishi mumkin. Buyurtmada qayd etilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi yuzasidan javobgarlik buyurtmani taqdim etgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt (Mijoz) zimmasiga yuklatiladi.

3. MIJOZ UCHUN MASOFADAN XIZMAT KO'RSATISH TIZIMI:


3.1. Masofadan xizmat ko'rsatish Tizimi orqali Mijoz va Bank o'rtaida axborot almashinushi hamda Mijoz tomonidan masofadan turib buyurtma taqdim qilishi va hisob-kitoblar Bank tomonidan o'rnatilgan vaqt oralig'ida amalga oshiriladi;

3.2. Mijoz Tizimning "Internet Banking" dasturi internet tarmog'iga ulanish imkonini beruvchi qurilma orqali o'ziga biriktirilgan ikey elektron kalit orqali login va parol bilan kirib, Bankning <http://www.brb.uz/> veb-saytidagi yuridik shaxslar uchun "Internet Banking" bo'limidan "Zayavka na pokupku-prodaju inostrannoy valyuti" modulini tanlaydi.

4. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Mijoz huquqlari:

- Mijoz xorijiy valyutani sotib olish yoki Bankka qayta sotish bo'yicha hamda xizmat ko'rsatish bilan bog'lik ma'lumotlar bilan tanishishga haqli;
- Xorijiy valyutani sotib olish yoki Bankka qayta sotishda Bank tomonidan tastiqlangan shaklda buyurtma taqdim qilish;
- Sotib olingen yoki sotilgan valyuta mablag'lar to'g'risida Bankdan ma'lumotlar olish;
- Maxsus valyuta hisobvarag'idan ilgari chiqarilgan va foydalanimagan, shuningdek,



boshqa sabablarga ko‘ra qaytarilgan chet el valyutasi 7 (yetti) bank ish kuni mobaynida sotilishini amalga oshirish (Bank tomonidan amaliyot kunidagi o‘rnatilgan tijorat kursi bo‘yicha) yoki buyurtmada ko‘rsatilgan maqsadlar uchun takroran o‘tkazish.

4.2. Bankning huquqlari:

- Mijoz tomonidan xorijiy valyutani sotib olish uchun berilgan buyurtmalar tarkibiy bo‘linma tomonidan qabul qilingan kundan keyingi bank ish kunidan kechiktirmasdan ko‘rib chiqishga;
 - “O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish” qoidalariga yoki amaldagi qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lgan buyurtmani rad etishga;
 - Mijoz tomonidan sotib olinib, maxsus valyuta hisobvarag‘iga (22614) kiritilgan vaqtдан e’tiboran 7 (yetti) bank ish kuni mobaynida foydalanilmagan valyuta mablag‘lari, ushbu muddat tugagandan keyingi bank ish kunidan kechiktirilmagan holda Bank tomonidan akseptsiz ravishda (Bank tomonidan o‘rnatilgan amaliyot kunidagi tijorat kurs bo‘yicha) qayta sotish.
 - “Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qирғин qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalariga” (ro‘yxat raqami 2886, 2017-yil 23-may) muvofiq mijoz hisobvarag‘i bo‘yicha operatsiyalarni to‘xtatib turishga yoki ularni amalga oshirishni rad etishga haqli;
 - Qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.


5. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. Mijoz majburiyatlari:

- Xorijiy valyuta sotib olish uchun yetarli mikdorda milliy valyutani zaxira qilish maqsadida (22613) hisobvaraq va xarid qilingan xorijiy valyutani o‘tkazish uchun maxsus valyuta hisobvaraq (22614) ochish;
- Xorijiy valyuta sotib olishda (import shartnoma, eksport shartnoma, kredit shartnoma, dividendlar va boshqa daromadlarni repatriatsiya qilish uchun bayyonnomma, xizmat safariga yuborish bilan bog‘liq hujjatlar), sotib olish maqsadini aniqlashtirish va tasdiqlash maqsadida, imzolangan hujjatlarning skanerlangan nusxasini modulning “Dokumenti” qismiga biriktirish;
- Buyurtmada ko‘rsatilgan xorijiy valyutani xarid qilish uchun milliy valyutadagi pul mablag‘larining yetarli bo‘lishi;
- Taqdim etilgan buyurtmaga muvofiq sotib olingan valyuta mablag‘larini qabul qilish. Bank tariflarida belgilangan Bank xizmat haqini o‘z vaqtida to‘lash. Maxsus valyuta hisob varaqlariga mablag‘larni kiritilgan paytdan boshlab 7 (yetti) bank ish kunida foydalanish;
- Xarid qilingan xorijiy valyutani taqdim etilgan buyurtma va shartnoma va/yoki boshqa hujjatga (kredit shartnomasi, dividendlarni repatriatsiya qilish bayyonnomasi, shuningdek, xizmat safariga taalluqli bo‘lgan hujjatlarga) muvofiq qat’iy belgilangan maqsadda foydalanish;
- “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunchilik talablariga rioya etish va Bank tomonidan bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar hamda hujjatlarni Bankka taqdim etish.

5.2. Bank majburiyatlari:

- Mijoz taqdim etilgan buyurtma Bankning tarkibiy bo‘linma tomonidan qabul qilingan kundan keyingi bank ish kunidan kechiktirmasdan ko‘rib chiqish;
- Bank Mijozi tomonidan sotib olinib, Mijozning maxsus valyuta hisobvarag‘iga kiritilgan vaqtдан e’tiboran 7 (yetti) bank ish kuni mobaynida foydalanilmagan valyuta mablag‘larini, ushbu muddat tugagandan keyingi bank ish kunidan kechiktirmagan holda sotilishini amalga



oshirish;

- Maxsus valyuta hisobvarag‘idan ilgari chiqarilgan va foydalanimagan, shuningdek, boshqa sabablarga ko‘ra qaytarilgan chet el valyutasi 7 (yetti) bank ish kuni mobaynida sotilishini amalga oshirish yoki buyurtmada ko‘rsatilgan maqsadlar uchun takroran o‘tkazib berish.
- Mijoz yoki mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiya 2886-ga asosan yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga kiritilgan taqdirda, bank ushbu mijozni tekshirishning kuchaytirilgan chora-tadbirlarini – operatsiya bo‘yicha pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkning manbalari haqidagi qo‘srimcha ma’lumotlarni olish, maqsadlarini o‘rganish, ushbu mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalar ustidan doimiy monitoring yuritish va bu haqda komplaens nazorat xizmati mas’ul xodimiga xabar berishlari shart.

6. FORS-MAJOR

6.1. Bartaraf qilib bo‘lmaydigan kuchlar, holatlar (fors-major) bu tomonlarga o‘z majburiyatlarini bajarishga imkoniyat bermaydigan, oldindan aytib bo‘lmaydigan va kutilmagan favqulorra holatlar, tomonlarning irodasi, istagi va faoliyatiga bog‘lik bo‘lmagan sabablarga ko‘ra paydo bo‘lgan tabiiy ofatlar (zilzila, yer ko‘chishi, to‘fon, qurg‘oqchilik), ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (harbiy harakatlar, asirga tushish, davlat manfaatini ko‘zlash maqsadida import va eksportni taqiqlash), xalqaro, banklararo va bankning to‘lov hamda ta’minot Tizimlaridagi buzilishlar, bankning dasturiy ta’minotiga qaratilgan tahdidlar (uchinchchi shaxslar tomonidan uyuştirilgan hujum).

6.2. Fors-major vaziyatlari yuzaga kelganda tomonlar ushbu vaziyatlari bartarafta etilgunga qadar shartnomani bo‘yicha majburiyatlarini bajarishdan ozod etiladi.

6.3. Fors-major vaziyatlari yuzaga kelganda vaziyatlari u bartafta etilganligi haqidagi xabarlar tomonlarda mavjud bo‘lgan barcha aloqa manbalari orqali jo‘natilishi mumkin (SMS va MMS xabarnomalarini istisno etgan holda).

7. OSHKOR QILINMAYDIGAN MA’LUMOTLAR

7.1. Mazkur shartnomani tuzish va uni bajarish vaqtida tomonlar bir-birlaridan olgan barcha ma’lumotlar oshkor etilmaydigan ma’lumotlar hisoblanadi.

7.2. Shartnomani tuzish va shartnomani bo‘yicha majburiyatlarini bajarish vaqtida tomonlardan biri boshqa tomonning tijorat siri hisoblangan, oshkor etilmaydigan axborot va ma’lumotlarni ma’lumot egasining roziligidisiz oshkor etganligi uchun javobgar bo‘ladi.

7.3. Tomonlar ushbu bilan mazkur shartnomaning qa’tiy sir saqlanishini ta’minalash va tomonlarning o‘zaro roziligidisiz uchinchi shaxslarga ushbu ma’lumotlarni oshkor etmaslik majburiyatini o‘z zimmalariga oladilar.

7.4. Mazkur talab shartnomani amalda bo‘lgan vaqtida va shartnomani muddati tugagandan keyin uch yil mobaynida amal qiladi.

7.5. Mazkur talablarni buzgan tomon ushbu talabni bezish natijasida yetkazilgan zararni to‘liq qoplaydi.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Tomonlar mazkur shartnomani bo‘yicha majburiyatlarini bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik va bahslarni muzokara yo‘li bilan hal qilishadi.

8.2. O‘zaro kelishish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda, ikkinchi tomon huquqlari buzilgan tomonning talabiga yoki ogohlantiruvchi xatiga unda ko‘rsatilgan muddatlarda javob berishi lozim.

8.3. Talab yoki ogohlantiruvchi xat shaxsan taqdim etish, elektron manzilga jo‘natish yo‘li bilan yoki pochta xizmati orqali buyurtma xat bilan amalga oshirish mumkin.

8.4. O‘zaro kelishish bilan hal qilib bo‘lmaydigan nizolar O‘zbekistan Respublikasi qonunlari bilan o‘rnataligan tartibda sud orqali hal qilinadi.



9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTI

9.1. Taraflar mazkur Shartnoma doirasida antikorrupsion qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilish va hech qanday korruption holatlarga yo'l qo'ymaslik majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

10. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

10.1 Ushbu shartnoma elektron raqamli imzo orqali imzolangan taqdirda yuridik kuchga ega va taraflarga elektron tarzda taqdim etiladi va elektron tuzilgan shartnoma hisoblanadi. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati u bo'yicha majburiyatlarning to'liq ijro etilishiga qadar yoxud Mijoz tomonidan berilgan buyurtmaning bekor qilinishiga qadar belgilanadi.

